



# MEZON



1

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**IJTIMOIIY-GUMANITAR FAKULTETI**

# **M E Z O N**

**IQTIDORLI TALABALARNING**  
**MAQOLALAR TO'PLAMI**

**1-son**



20663/1

**Mazkur maqolalar to`plami Namangan Davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fakul'teti Ilmiy Kengashining 2009 yil 21 dekabrdagi yig'ilishida ko`rib chiqilgan va ma'qullangan.**

**Mas`ul muharrir: falsafa fanlari nomzodi O.Mamatov**

**Taqrizchilar: falsafa fanlari nomzodi, dotsent  
A.Mirzahmedov  
tarix fanlari nomzodi K.Vohidova**

**«Namangan» nashriyoti 2010 y.**

## **Muqaddima**

O'zbekiston istiqloлга erishgach ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bo'lgani kabi, ta'lim tizimi sohasida ham ulkan ishlar amalga oshirildi. Respublikamizda yoshlarning har tomonlama chuqur bilim olishlari uchun barcha sharoitlar vujudga keltirildi. Ayniqsa, 2008 yilni «Yoshlar yili» deb e'lon qilinishi g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Shu o'rinda «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 fevraldagi PQ 805-son qarori bilan tasdiqlangan «Yoshlar yili» Davlat dasturining Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishli bandlarida belgilangan vazifalarni Namangan davlat universitetida amalga oshirish rejasining harakat dasturi»da - «...universitet talaba-yoshlarining ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan mazkur chora-tadbirlar ijrosi monitoringini olib borish va bajarilgan ishlar to'g'risida rahbariyatga ma'lumot taqdim etish» haqida alohida ko'rsatma berilganligini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi dastur bandlaridan kelib chiqqan holda, Namangan davlat universitetining Ijtimoiy-gumanitar fakultetida ham «Yoshlar yili» Davlat dasturining bajarilishi yuzasidan talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtidorli talabalarga ilmiy-ijodiy faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratib berish va rag'batlantirish borasida fan to'garaklari tashkil etilib, iqtidorli talabalarga ilmiy salohiyatga ega bo'lgan murabbiylar tayin etildi.

Mazkur tadbirlarning natijasi sifatida ushbu ilmiy to'plam tayyorlandi. Namangan davlat universitetining Ijtimoiy-gumanitar

fakulteti Ilmiy Kengashi 2008 yildan e'tiboran, talaba yoshlarni ilmiy faoliyatga yo'naltirish va rag'batlantirish borasida ular tomonidan yaratilgan ilmiy-ijodiy maqolalarni davriy to'plam sifatida nashr etishni yo'lga qo'yishni rejalashtirdi. Ushbu to'plam har yili bir marta nashr etishga mo'ljallangan bo'lib, «MEZON» deb nomlandi. Bugun ushbu to'plamning ilk 2010 yil 1-soni muxlislarga, ilmiy jamoatchilikka havola etilmoqda.

Mazkur to'plam kamchiliklardan xoli bo'lmazligi mumkin. Shu bois to'plam va undagi maqolalar xususida bildirilgan fikr-mulohazalarni fakultet iqtidorli talabalar kengashi bajonidil qabul qiladi.

# KOMIL INSONNI SHAKLLANTIRISHDA MAHALLANING ROLI

*Nodirbek QODIROV,  
milliy g`oya, ma`naviyat  
asoslari va huquq ta`limi  
yo`nalishi 4-bosqich talabasi*

Komil inson g`oyasi va uni amalga oshirishga bo`lgan intilishlar insoniyat sivilizatsiyasining ma`no-mazmunini tashkil etadi.

Tarixga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning asosiy ko`rsatkichi insonni ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g`oyalarga munosabatda hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo`ladi. Ya`ni, jamiyatning umumiy rivojiga insoniyatning sivilizatsiyasiga ijobiy ta`sir ko`rsatuvchi komillik mezoni insonni, shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilishdan iborat bo`lib kelgan.

Insondagi komillik, eng avvalo, uning tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashdir. Shu ma`noda buyuk yunon faylasufi Suqrotning «O`z-o`zingni bil» degan da`vati ham insonning o`z nasl-nasabini, hayot mazmunini, kishining kelajak avlodlar oldidagi mas`uliyati va majburiyatlarini anglashga qaratilgan chaqiriqdir.

Oilaning farovon va har tomonlama rivojlanishiga, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida mahallaning o`rni katta. Zero, o`smirlar odobni, muomala madaniyatini dastlab oilada, keyin mahallada o`rganadilar. Komil inson tarbiyalanar ekan, avvalo, jamiyatning quyi bo`g`ini bo`lmish mahallaning komil inson tarbiyasidagi roli kattadir. Mahalladagi sharoit, keksalar va yoshlar o`rtasidagi muomala madaniyati, insonlar o`rtasidagi munosabat orqali tarbiyalanadi.

Mustaqilik yillarida mahallaning bu boradagi ahamiyati ortib bormoqda. Respublikamizda Oqsoqollar Kengashi, «Mahalla» jamg`armasi tuzildi. Muhtaram yurtboshimiz tomonidan 2003 yil «Obod mahalla yili» deb e`lon qilindi. «Obod mahalla yili» davlat Dasturi qabul qilindi. Mahallada shaxsni tarbiyalashda jamoatchilikning o`rni katta. Dono xalqimizda «Bir bolaga etti mahalla ota-ona» degan ibratomuz maqol bor. Va bu albatta bejiz emas. Qadimda ota-bobolarimiz farzand tug`ilganidanoq unga birgalikda tarbiya berishgan. Shuning uchun ham bola mahallada o`zidan katta inson ish buyursa, yo`q demagan. Bu

mahallaning sog'lom muhit ekanligidan darak beradi. Endilikda ilg'or fikrli kishilar boshchilik qilayotgan mahallalardagi jamoatchilik fikri muayyan ma'naviy kuch bo'lib qolmoqda. O'z-o'zini boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an'analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajarmoqda.

Yurtboshimiz: «Mahalla - avvalo sog'lom ijtimoiy maskandir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi», deb bejiz aytmagan edi. Shu ma'noda mahallaning «demokratiya darsxonasi» deb ham atash mumkin. Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarning samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehroqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarini kamol toptirishda mahallaning o'rnini beqiyos.

Komil inson jamiyatda yashar ekan, unda milliy g'urur, milliy mentalitet kabi g'oyalar singib boradi. «Milliy g'urur - ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalaydi».

Bu g'urur tuyg'usi hozirgi kunda quyidagi ko'rinishlar bilan namoyon bo'lmoqda: millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy-ma'naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr muhabbatini amaliy faoliyatida namoyon qilishlarida ko'rishimiz mumkin.

Komil insonning sog'lom milliy g'ururi o'zga millatga mansub kishilarga hurmat-ehtirom ko'rsatishni taqozo qiladi. Bunday tuyg'uga ega ma'naviy etuk kishi milliylikni millatchilikdan farq qila oladi, boshqa millat vakillarining izzat - nafs va g'ururini kamsitmaydi. Mustaqillik komil insonlarni milliy g'ururni oshirib, xalq, vatan, xotirasi oldidagi mas'uliyatni his qilishdek mazmun bilan boyitmoqda.

Milliy g'urur bilan birgalikda milliy mentalitet tuyg'usini komil inson tarbiyasida singdirish lozim. Mustaqillik, boshqa xalqlar qatori, o'zbek xalqi oldida ham o'z mentalitetini o'rganish, uni tiklash va boyitish uchun ulkan imkoniyatlar yaratib bermoqda. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyalarini insonlar ongida, qalbiga jo qilish,

ularida zamonaviy, milliy mentalitetni hosil qilishning eng asosiy jihatlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston erkin fuqarolik jamiyati qurar ekan, bu jamiyatda komil inson va mahalla o'rtasida doimiy bog'lanish bo'ladi. Bu jamiyatda insonlar o'rtasida totuvlik, xalqlar o'rtasida hamjihatlik O'zbekistonning kelajagi buyukligidan dalolat beradi.

## **G' OYAVIY TARG' IBOTNING SAMARALI USUL VA VOSITALARI**

*Muhayyo ABDURAHMONOVA,  
milliy g'oya, ma'naviyat  
asoslari va huquq ta'limi  
yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

*G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi  
faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin.*

**I. Karimov**

Insoniyat paydo bo'libdiki, fikrsiz, g'oyasiz faoliyat ko'rsata olmaydi. «So'z ayladi insonni judo hayvondin, bilgilki guhari sharifroq yo'q ondin», deb Navoiy bobomiz bejiz aytmaganlar. So'z esa fikrni tilda ifodalash shaklidir. Insonda dastlab fikr shakllanadi. So'ng so'z orqali ifodalanadi. Insonning har bir faoliyati fikr orqali amalga oshadi. G'oya bu - inson tafakkurining mahsuli. Ya'ni inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari etaklaydigan kuchli, teran fikr.

Jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarining intilishi va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona kuch - g'oyadir.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi eng asosiy vazifa, deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Islom Karimov, - milliy istiqloq g'oyasini shakllantirish va odamlar ongiga singdirishdan iboratdir.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida 1993yil 7 may kuni nutq so'zlab, Prezident Islom Karimov quyidagilarni ta'kidlagan edi:

- milliy g'oya xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim.

- shu bilan birga, bu g'oya xalqimizda, yoinki barcha xalqlarda o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli asosda munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash kerakki, g'oya jamiyatni ezgu maqsadlar sari yo'naltiruvchi yagona kuchdir. G'oya bugun yoki kecha paydo bo'lgan tushuncha emas. G'oya vaqt o'tgan sari hammaga tushunarli, dolzarb bo'lib, tiniqlashib boradigan fikrdir.

Agar fikr mamlakat miqiyosida ijtimoiy ahamiyat kasb etsa, u vaqti kelib, milliy g'oyaga aylanishi mumkin.

Milliy degani faqat bir millatga emas, balki millatidan qat'iy nazar, butun bir hududda, ya'ni yagona mamlakatda yashayotgan xalqqa tegishli bo'lgan xususiyatlarni aks ettiradi. Masalan, mustaqillik asrlar davomida ota-bobolarimizning xayolini band etib kelgan azaliy armon edi. U ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgani, borgan sari butun xalqimiz manfaatlariga javob beradigan maqsadga aylangani uchun oxir-oqibatda barchani birlashtiradigan milliy g'oyaga aylandi. Umumnazariy jihatdan yondashilganda barcha taraqqiy etgan etnoslarda milliy g'oya fenomeni umumiy qadriyat sifatida namoyon bo'lgan, birlashtiruvchi, uyushtiruvchi vazifalarni bajargan "Amerika g'oyasi", "rus g'oyasi", "olmon g'oyasi", "yapon g'oyasi" va hokazolar o'sha xalqlar tarixida rol o'ynaganligini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Bugungi kunda Respublikamizda milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan shug'ullanuvchi mutassadi tashkilotlar va ilmiy dargohlar tashkil qilingan. Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi shular jumlasidandir. Yuqoridagi mutassadi tashkilotlar aholining g'oyaviy madaniyatini yuksaltirish borasida qator izlanishlar olib bormoqda. Shunday bo'lsada, milliy g'oya targ'ibotining samarali usul va vositalari, aholining turli tabaqalari orasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning usullari hozircha muammo bo'lib qolmoqda. Shu boisdan mazkur muammoning o'ta murakkabligi va milliy g'oya nuqtai nazaridan

o'rganilishi fundamental ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida kun tartibiga qo'yilishi dolzarb masaladir.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar ko'payib ketdiki, bu jarayondan to'la himoyalani olgan birorta ham davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq tushib qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir esa, ko'pincha salbiy oqibatlariga olib keladi.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman".

Shuning uchun ham milliy g'oya bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda, "dovullar"dan saqlash omili ekanligini anglash muhimdir.

Axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi bugungi kunda favqulodda muhim ahamiyatga egadir. Bunday vaqtda jamoatchilik fikri juda katta ahamiyat kasb etadi. Jamoatchilik fikri ijtimoiy hayot ta'sirida shakllanib borishi yoki siyosiy tashkilotlar va mafkuraviy muassasalarning omma ongiga ta'sir ko'rsatishi natijasida o'zgarib borishi mumkin. Jamoatchilik fikrini o'zgarib borishida ommaviy axborot vositalari juda muhim rol o'ynaydi. OAV (televideniye, radio, jurnal, gazeta) orqali keng jamoatchilik dunyo bilan axborot almashinadi. Ommaning siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy qarashlari o'sib boradi.

Mafkuraviy globallashuv saviyasi past audio, va vidiokassetalar, axloqsiz, tubanlik va yovuzlikni targ'ib qiladigan "san'at asarlarining" ham keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. G'oyaviy-mafkuraviy tazyiq va tajovuzlarning oldini olish uchun esa har bir millat, davlat o'zining g'oyaviy-mafkuraviy daxlsizligini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni ko'rishi zarur bo'lib qolmoqda.

Hozirda respublika shahar va qishloqlarida faoliyat yuritayotgan kutubxona va klub muassasalari aholi orasida madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy targ'ibot ishlari bilan shug'ullanmoqda. 7000 kutubxona, 2500 dan ortiq

madaniyat saroylari, klub muassasalari aholiga ma'naviy-ma'rifiy xizmat ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, milliy g'oya millatning yagonaligini, yahlitligi va birligini ta'minlaydi, barcha fuqarolarni yagona bayroq ostida jipslashtiradi. Vatanning kelajagi porloq bo'lishiga ishoniradi va ommani istiqbolga ishonch bilan qarab yashashga undaydi.

## **FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR**

*Zilola OLIMOVA,  
ijtimoiy-madaniy  
faoliyat ta'lim yo'nalishi  
4- bosqich talabasi*

Fuqarolik jamiyati bu – erkin, demokratik, huquqiy, sivilizat-siyalashgan jamiyat bo'lib, xalqning, odamlarning siyosiy va huquqiy ongini, o'z erkinliklarini bilishini, mamlakat hayotidagi voqea- hodisalar haqida tushunchaga ega bo'lishini ta'minlovchi, o'zini-o'zi boshqaruvchi davlat organlari faoliyati va hozirgi kundagi mavjud nodavlat, notijorat tashkilotlar haqida ma'lumot beruvchi, qonun ustuvorligini ta'minlovchi qonunga itoat etuvchi, fuqarolarni tarbiyalash yo'lida ish olib boruvchi jarayondir, deb ta'kidlagan edi prezident I.A.Karimov

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasida fuqarolik jamiyati institutlari huquq va vakolatlarini kengaytirish, islohotlar jarayonini jadallashtirish imkoniyatlari haqida to'xtalib o'tilgan, bu esa fuqarolik jamiyatini shakllantirishning yana bir muhim belgisidir.

Fuqarolik jamiyati konstitutsiyaviy huquq nazariyasida, huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli: insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan qonun ustuvorligi, inson huquqlari va erkinliklari qaror

topadigan, ko'p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligini ta'minlaydigan hamda o'zini-o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tuzum. Sharqda fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud. Bu bevosita axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan qismidir. Fuqarolik jamiyatining ilk belgilari kishilarning uyushib yashashi, axloq, huquq me'yorlari kabi fikrlar "Avesto"da ilgari surilgan. Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol fuqorolik jamiyatini shakllantirishning mohiyati chuqur tahlil etilgan.

Qonunlari mukammal bo'lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo'lishi muqarrar ekanligi bayon etiladi. Bu kabi g'oyalar ulug' bobakalonlarimiz Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalarning asarlarida ham ilgari surilgan. Biz qurayotgan fuqarolik jamiyatida qanday muammolar bor? degan haqli savol tug'iladi. O'zbekchilik, mahalliychilik an'analari biz qurayotgan fuqarolik jamiyatini shakllanishiga halaqit beradi. Qarindoshchilik, mahalliychilik asosida ayrim shaxslar o'z maqsadlariga erishish uchun o'z a'zolarini mavjud davlat, hokimiyat va boshqa mansab pog'onalariga yuqori ko'tarishga harakat qiladi. Jamiyatimizda bugungi kunda bunday barqarorlikka real tahdid soluvchi holatlarga qarshi tegishli chora-tadbirlar ko'rilmogda.

"O'zbek modeli" sifatida tan olingan taraqqiyot yo'li o'zini to'liq oqlayotgani "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilining amaliyoti mamlakatda inson va uning huquqlari, erkinliklarining oliy qadriyatga aylantirdi. O'zbekistonning avval boshdan tanlagan taraqqiyot yo'lining to'g'ri ekanligini bu intilishlar yurtdoshlarimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligida ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2008 yil "Yoshlar yili" deb e'lon qilinganligi biz qurayotgan fuqarolik jamiyati konsepsiyasida yoshlar ishtirokini ham kattaligini tasdiqlaydi. Mustaqillik chindan ham bizning borligimiz, shonu-shuhratimiz, erkin va farovon kelajagimiz garovi ekanini ko'rsatib turibdi.

Xulosa qilib aytganda fuqarolar o'z huquq va erkinliklaridan kelib chiqqan holda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va undagi muammolarni bir yoqadan bosh chiqarib hal qilishsa, o'z oldimizga qo'ygan ulkan va mas'uliyatli vazifalarni bajara olamiz.

# MARKAZIY OSIYO XALQLARINING QADIMIY MA`NAVIYATI

*Nodirbek QODIROV,  
milliy g`oya, ma`naviyat  
asoslari va huquq ta`limi  
yo`nalishi 4-bosqich talabasi*

Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan zardushtiylik ta`limoti va uning muqaddas kitobi «Avesto», Eron va Shimoliy Hindistonda keng tarqaldi.

Xorazmda topilgan otashxona va boshqa ibodatxonalar Abu Rayhon Beruniy ta`riflagan otashgohlar to`g`risida tasavvur beradi. Jonbasqal`a yodgorliklariga qarab esa o`sha davr me`morchiligining shakllari xususida mulohaza yuritish mumkin: inshootlar to`rt qirrali qilib qurilgan, ya`ni dunyoning to`rt tarafiga qarab turgan hamda ustidagi gumbazi quyoshni aks ettirgan. Afrosiyobda Ahmoniy madaniyatiga taqlid qilinib yasalgan otlig podsho tasviri tushirilgan o`choq topilgan. Ahmoniy davrining muhtasham yodgorligi Naqshi Rostam darasidan topilgan Shoh Doro tobutidagi bezakli tasvirlar orqali unga qaram bo`lgan xalq vakillarining qiyofalarini tasavvur eta olamiz. Bu o`yma sur`atlarda ularning etnik tipi, kiyimlari, qurol-yarog`lari nihoyatda nafis va nozik ifodalangan. Xuddi shu manzara Persopol saroyida ham takrorlanadi. Bu tasvirlar bizga o`sha qadimiy ajdodlarimizning qanday kiyimlar kiyib yurganlari to`g`risida aniq tasavvur beradi. O`sha davr O`rta Osiyo xalqlarining tili xususida fikr yuritish juda mushkul. Yunoniston tarixchilari bir qancha tarixiy nomlarni keltirishadi, biroq o`zlari o`sha nomlarni o`z tillariga moslashtirib yozishgan, ular o`zlari ifoda eta olmagan, shilpildoq, jarangli tovushlarni «S» harfi bilan almashtirib ifoda etganlar. Shu bois To`maris, Amar, Sparatra, Zariadr va Zarina nomlari aslida qanday aytilganini biz bilmaymiz. Faqatgina «Sak» so`zi «Shak» shaklida ifoda etilgani ma`lum. Amudaryo yunon tilida «Oks», Xorazm tilida «Okus», Zarafshon yunoncha «Politemit», «Avesto»da esa «Dayt`ya» deyilgan va h.k. Toxarlar qadimgi daxlarning avlodi bo`lib ularning tilida yunon, armani va slavyan tillariga o`xshashlik bo`lgan.

Shu davrda og`zaki ijod kamol topadi va muqaddas «Avesto» yaratiladi. «Avesto» qahramonlari Baxti, So`g`diyona, Marg`iyona va

Ayrian Vazja (Xorazm) va boshqa hududlarda zafarlar qozonishadi. «Avesto»da jumladan, ajdarhoni yakkama-yakka olishuvda yenggan bahodir Geshtasp hamda Eron shohini zabt etgan Afrosiyob sha'niga madhiyalar o'qilganligi ma'lum. Bu davrda O'rta Osiyo hududidagi xalqlar bir necha din va aqidalarga rioya etishgan. Zardushtiylik Mitra oqimiga qo'shilib ketgan Ta'bir, Anaxid aqidasi, eroniylik, ajdodlar ruhiga sajda qilinuvchi Ahmoniy dini, shamanlik, Siyovushga sajda qilish va h.k. bo'lgan.

Bir qator adabiyotlarda «Ovasto» va «Avesto» nomlari bir xil ma'noda ishlatiladi. Olimlar orasida zardushtiylik Midiyadan tarqala boshlagan, degan «g'arbiy nazariya» mavjud. Biroq, uning aksi o'laroq yuzaga kelgan «Sharqiy nazariya»ga binoan Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona va Parkana mazkur dinning vatani hisoblanadi. Bu nazariya tarafdorlari ko'pincha zardushtiylikni Xorazm bilan bog'laydilar va taxminlarga ko'ra «Ovasto»da hikoya qilingan «adarxurra» muqaddas olovi shu yerda yoqilganligini isbotlashga urinadilar. Zardushtiylik ta'limoti Eronda bir muncha boshqacharoq tarzda o'zgara boradi. Chunki Ahmoniy podshohlari Axuramazda siymosini uning erdagi noibi - shoh bilan bog'laydilar va o'z nomlariga uni qo'shib aytadilar. Rodostlik Evtidemning qayd etishicha, zardushtlikka qadar Eron va Turon xalqlari orasida evroniylik ta'limoti tarqalgan. Evron - ayrim manbalarga ko'ra vaqt xudosi hisoblangan. U Axuramazda va Axrimanning otasidir. Axuramazda esa o'z otasiga ham qarshi kurashgan. O'rta Osiyoda yanada qadimiy urf-odat, aqidalar ham mavjud bo'lgan, albatta shamanlik shulardan biridir. Yunon tarixchisi Gerodot gulxan atrofida davra qurib o'tirib, tutayotgan giyohning hidiga sarxush bo'ladigan, so'ngra esa, raqsga tushib qo'shiq aytadigan massagetlar haqida yozib qoldirgan. Dunyoda yangi voqealarga asos solgan, ijtimoiy-madaniy tarixda o'chmas iz qoldirgan, payg'ambarlar ko'p bo'lgan. Shulardan biri zardushtdir. U o'z zamonida zardushtiylik diniga asos solgan. Zardushtiylik dini bundan 3-2,5 ming yil muqaddam O'rta Sharqdagi ko'pgina davlatlarga yoyilgan. Bu to'g'risida turli afsona va rivoyatlar ko'p. Hozirgi kunda ham tarixchi, sharqshunos, arxeolog, filologlar orasida Zaratushtraning kelib chiqishi, vatani haqida turli fikr mulohazalar yurganligi bejiz emas.

Bu aytilganlar Zaratushtraning hayoti tarixi haqida aniq ma'lumot berolmaydi. Bunga aniqlik kiritish uchun zardushtiyning muqaddas kitobi hisoblangan va eng ko'p qismlari Zaratushtra tomonidan bitilgan «Avesto» kitobiga murojaat etish joiz. «Avesto»ning maxsus bobida

Zaraushtra tarixiy shaxs sifatida bayon etiladi. «Avesto» kitobida yer dumaloq shaklda yaratilganligi, uning atrofi okeanlar bilan o'ralganligi aytilgan. Ularning nomlari keltirilgan mamlakatlarda xudo Axuramazda ekanligi, qonunlarini Zardusht orqali vahiy qilganligi haqida yozilgan. Zardushtiylik bo'yicha ilgari ko'p xudolik dinidan rasm - odat bo'lib qolgan murdalarni olovda kuydirib, kulini dafn etishni qat'iy qoralanib, marhum suyaklarini ostadonlarga solib ko'mish kabi yangicha odatlar joriy qilingan. Bunday ostadonlar tadqiqotchilar ta'kidlashicha, asosan Markaziy Osiyo hududlari er ostidan topilayotir.

Zardusht yaratgan ilohiy kitobning o'zi bizgacha etib kelmagan.<sup>8</sup> Faqat u haqida yozilgan tarixiy manbalar bor xolos. Zardusht yashagan davrda kishilik jamiyati ilgarilab rivojlana boradi. Ko'chmanchilikka asoslangan Markaziy Osiyoda eski turmush tarzi o'rnini o'troq yashash egallay boshlaydi. Sug'oriladigan yerlar ko'paytirilib dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik borgan sayin taraqqiy etadi. Yangi-yangi shaharlar, obod qishloqlarning paydo bo'lishi o'troq turmush tarzining afzalliklarini ko'rsata bordi. Ana shu o'troq turmush tarzini odamlarga benihoya kulfat keltirayotgan ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarziga nisbatan afzalliklarini ommaga etkazish davrni asosiy muammosi bo'lgan. Ana shu zaruriy muammoni Zardusht hammadan oldin ko'ra olgan va uni hal qilish yo'llarini topa olgan. Xalqlarni, qabilalarni birlashtirib, Zardusht farovonlikka erishtirishning birdan bir yo'li -yakka xudolik Vahdoniyatga o'tish deb bildi. Va u o'zining butun ongli faoliyatini shu muqaddas ishga bag'ishlab, yakka xudolik uchun olib borilgan urushda o'zi ham halok bo'ladi.

Zardushtiylik muqaddas kitoblari to'plami «Avesto» Iskandar Zulqarnayn hokimiyati inqirozga yuz tutgach, miloddan oldingi 250 - yillarda, arshohiylar davrida yana tiklana boshlagan va u yangi matnlar bilan to'ldirilgan. Birinchi kitob «Vedevdat», ya'ni devlarga qarshi qonun deb ataladi. «Vedevdat»ni poklanish qonun-qoidalari majmuasi deb aytsak bo'ladi. Ikkinchi kitob «Yasht» bo'lib Zardusht xat (noma)lari uning asosiy mazmunini tashkil etadi. Kitobdan poklanish (yuvinish gigienasi) yovuzlikni ko'rganda qanday maromda cho'chishlik, shayton, iblislarni haydashga qaratilgan harakatlar, gunohdan forig' bo'lish, kechirim so'rashga doir duolar ham katta o'rin olgan. Jumladan, imonni saqlab qolish, gunohdan forig' bo'lishlik uchun quyidagi duoni o'qish tavsiya etiladi: «Ey, olamning hukmdori Axuramazda, men barcha gunohlarimga iqorman, ularni takrorlamaslikka so'z beraman, har qanday

yomon niyat, soʻzlardan, har qanday yomon amallardan voz kechaman, soʻzlarim va amaliy ishlarim orqali bundan buyon ishonchingni oqlayman, qilgan gunohlarimni keng karaming bilan kechirgin, tanam va jonimni u dunyo-yu-bu dunyo munavvar etgin, ey parvardigorim». Ikkinchi kitobning ettinchi bobida Zardusht orqali xabar berilgan bashoratlar oʻz ifodasini topgan. Olamdagi yovuzlik va notakomillik hodisalar va ularning mohiyatidan kelib chiqadi. Ularni bartaraf etish esa istiqboldagi ish boʻlib, imonli kishilarning faolligi tufayligina bunga erishiladi. Imonli kishilar Axuramazda yuborgan qonun-qoidalar, targʻibotlar, nasihat va oʻgitlarga amal qilsalar ezgulik yovuzlik ustidan gʻalabaga erishib boraveradi.

Kitobda yozilishicha, Olam qarama-qarshiliklar asosida qurilgan, jismoniy narsalarda yorugʻlik bilan zulmat, jonli tabiatda hayot bilan oʻlim, maʼnaviy olamda ezgulik bilan yovuzlik, ijtimoiy hayotda adolatli qonunlar bilan qonunsizliklar oʻrtasida doimo qarama-qarshiliklar bor. Diniy sohada ezgulikni qaror toptirish ruhi bilan yovuzlik ruhi oʻrtasida keskin kurash boradi. Axuramazda ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi boʻlgan Axriman unga qarshi kurashib odamlarni yomonlik sari yovuzliklarga boshlayveradi. Kitobning 30-bashoratida taʼkidlanishicha, ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi abadiy kurashda oraliq yoʻq, har bir odam bu jarayonning u yoki bu tomonida ishtirok etishga majbur. Shu boisdan, dindorlik, iymon-eʼtiqod barkamollik nishonasi sifatida muhim oʻrin tutadi. Iymon-eʼtiqod odamlarga ezgulikni yovuzlikdan farqlash imkonini beradi.

Iymonli, eʼtiqodli odam albatta ezgulik, yaxshilik sari intiladi. Yovuz ruhlar, dev, pari iblis va boshqa gunohlar, adashishlar, yolgʻon, kasalliklar timsoli sifatida tasvirlanadi. Zardushtiylik iymoni 3 tayanchga asoslanadi. Fikrlar sofligi, soʻzning sobitligi, amallarning insoniyligi. Axuramazda odamlarni oʻz istaklarida xolis boʻlib, bir-birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari, gʻarazgoʻylik, hasadgoʻylik, kattazanglik, shuhratparastlik, qonunsiz ishlardan oʻzlarini tiyib yurishga chaqiradi. Bergan soʻzning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqda shartnomalarga qatʼiy amal qilish, qarzni vaqtida toʻlash, aldamchilik va xiyonatdan xoli boʻlish iymon alomatlaridur, deyiladi.

Iymonli odam oʻgʻirlik va talonchilikdan, begonalarning mol-mulkiga koʻz olaytirishdan, oʻz-oʻziga xiyonat qilishdan, yaʼni imonga xilof ishlardan oʻzini saqlay biladigan komil insondir. «Tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida koʻproq qaygʻuring», yaʼni avval maʼnaviy dunyoingiz



musaffo bo'lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo'lib boraveradi», deydi Axuramazda. «Avesto»da shaxsning axloqiy xislatlari haqgoylik, adolatlilik ulug'lanadi. «Avesto» kitobida moddiy dunyo, borliq muqaddaslashtiriladi. Yer, suv, havoni bulg'ash, ifloslantirish eng og'ir gunohlar qatoriga qo'shiladi. Axuramazda «yerga yaxshi sog'lom urug'dan sepishdan ortiq savob ish yo'q», - deydi. Xudoi ta'oloning bu aytganlariga amal qilish 10 ming marta ibodat etish yoki yuzlab jonivorlarni xudo yo'lga qurbonlikka so'yishdan afzalroq hisoblangan. Axuramazda qonunlarida qo'riq va bo'z erlarni o'zlashtirish, uni jamoa o'rtasida adolatli taqsimlash eng savobli ishlardan hisoblangan. Undan keyingi savobli ish esa oziq-ovqat tayyorlash, uy hayvonlari va chorva mollarini ko'paytirishdan iborat bo'lgan. Zardusht xudo nomidan hukmdorlarga qarata bunday deydi: «Yomon ovqatlangan xalq na yaxshi, kuchli ishlovchilarga va na sog'lom, baquvvat bolalarga ega bo'ladi. Agar non mo'l-ko'l bo'lsa, muqaddas so'zlar ham qabul qilinadi». Bir qarashda oddiy ko'rinadigan bu so'zlarda juda katta falsafiy ma'no, tarbiyaviy o'gitlar borligiga amin bo'lamiz. Zardushtiylik o'gitlarida ona zaminga, dehqonchilikka, hunarmandchilik, chorvachilik, vatan va xalqqa ulug' muhabbat ruhi markaziy o'rinni egallaydi. Buni biz zardushtiylikning «Navro'z», Ro'za, mehr va boshqa barcha marosimlarida ochiq-oydin ko'ramiz. «Avesto»ning uchinchi kitobi «Visparat» deb ataladi. Bu kitobdan olamni, hamma narsani bilishga oid pandu nasihatlar o'rin olgan. Kitob asosan ibodat namozlari yig'indisi bo'lib 25 qismdan iborat. Bu kitob «Bundaxash», qadimiy eron tili pahlaviy tilida yozilgan. «Avesto» haqida Abu Rayhon Beruniyning «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida yozib qoldirgan ma'lumotlari diqqatni tortadi. Beruniy bunday yozadi: «Podshoh Doro Ibn Doro xazinasida 12 ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yuborgan. Shuning uchun «Avesto»ning beshdan uch qismi yo'qolib ketdi. «Avesto» 30 nask (qism), majusiylar qo'lida 12 nask chamasi qoldi». Zardusht yashagan va «Avesto» kitobi yozilgan davrda Markaziy Osiyoda aholining asosiy qismi o'troq hayotga, dehqonchilik va hunarmandchilikka o'ta boshlagan, ko'chmanchilikdan chorvachilikka e'tibor kuchaygan. Qadimgi shaharlar va dehqonchilik viloyatlari (Sug'diyona, Marg'iyona, Baqtriya, Parfiya, Xorazm)ning shakllanish jarayoni kechayotgan palla edi. Vatanimiz xalqlari hayotida yuz berayotgan bu ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar uning taraqqiyoti yo'lga

g'ov bo'layotgan mafkurani yangilashni, yangi jamiyat talablariga javob bera oladigan diniy islohotni amalga oshirishni talab etar edi. «Avesto»da ana shu islohiy talab o'z ifodasini topgan.

«Avesto»da patriarxal urug' jamoasi iqtisodiy tengsizlik, sinfiy tabaqalanish haqidagi ma'lumotlar ochiladi. Shunday qilib, «Avesto» miloddan avvalgi IX-VII asrlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti haqida g'oyatda muhim ma'lumotlar beruvchi ma'naviy merosdir.

Vatanimiz hududlarida zardushtiylik bilan bir qatorda moniylik dini ham milodning III asri o'rtalaridan keng tarqala boshlagan. Moniylikning asoschisi Moniy ibn Fatak (216-277)dir. Moniy samo nuri elchisi hisoblangan. Uning ta'limotida borliqning ikki substantsiya asosi - yorug'lik, yaxshilik, ruh olami bilan zulmat, yovuzlik, materiya olamining o'zaro kurashini e'tirof etuvchi zardushtiylik dualizmi yotadi. Moniylik ta'limoti Moniy o'limidan keyin ham keng tarqalgan. U VIII-asrda Uyg'ur xonligida hukmron dinga aylanadi. Ammo keyinchalik islom dini ta'qibiga uchraydi va asta-sekin Evropa va Osiyo mamlakatlarida barham topadi. XIV asrga kelib bu diniy ta'limot Xitoyda ham ta'qiqlanadi. Biroq, moniylikdagi yaxshilik va yomonlik kurashi haqidagi dualistik ta'limot keyinchalik Yevropa mamlakatlarida pavlikianchilik, Sharq mamlakatlarida esa mazdakiychilik harakatlarini keltirib chiqardi. Mazdakchilik ta'limotining asoschisi Mazdak Ibn Hamadoniy (470 - 529) dir. Mazdak xalq ommasining zardusht kohinlari va zodagonlariga qarshi kurashini boshqargan. Mazdakiylar harakati Erondagi dehqonlar va shahar kambag'allarining qo'zg'olonlaridir. Mazdakiylar harakati jamoa huquqlarini qayta tiklash, er, suv va mol-mulkka barobar egalik qilish, teng huquqli bo'lishni ta'minlash uchun kurash shiori ostida boshlagan edi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazdakiylik diniy-falsafiy ta'limot bo'lib, o'z davrida ijtimoiy tengsizlikni yo'qotish uchun kurashga da'vat etuvchi mafkura vazifasini bajargan.

Turon o'lkasi hududida qadimgi ajdodlarimiz o'zlarining uzoq tarixga borib taqaladigan madaniyatiga, xususan musiqa, qo'shiq tarixiga ham ega. Bizga ma'lumki, xalq meroslari, og'zaki ijodlari, folklori, doston va qo'shiqlari, allay-yallalari, bebaho madaniyat durdonalari, millatimiz xotirasi, o'tmish kechmishlarning gavharidir. Bugungi sharoitda, ya'ni O'zbekiston davlati o'zining mustaqilligini tobora mustahkamlab yuksaklik sari borayotgan bir davrda, shunday imkoniyatlar vujudga keldiki, biz qadimgi o'tmishimizni, o'lkamiz tarixini, xususan ushbu o'lkada yashagan qadimgi xalqlar madaniyati tarixini izchil, mukammal

izlab, o'rganib, tahlil qilib, keng xalq ommasiga berish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Yaqingacha Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining asl ildizlari yo'qligi, ularning ma'naviyati o'zga xalqlar ta'sirida paydo bo'lganligi haqidagi g'ayri ilmiy xulosalar mavjud edi. Jumladan, Sug'dning asosiy shaharlari bo'lgan Samarqand va Buxoroning 25 asrlik tarixiy ildizlari qaysi davrga borib taqalishi noma'lum edi. Shunisi aniqki, ibtidoiy davrlarda madaniyat, san'at turlari va she'rlari deyarli bir-biridan farq qilmagan. Qadimgi odamlarda birinchi o'rinda qornini to'yg'azish tashvishi bo'lib, shakllanib kelayotgan madaniyat va san'at ko'rinishlari ana shu yuqorida qorin to'yg'azish, mehnatning yakuniga bog'liq, xafachilik va boshqa ruhiy holatlar kechinmalar ham shunga asoslangan edi. Natijada ular ichki kechinmalarini dastlab tarkib topgan raqslarda, qolaversa ilk bor ovoz ishtirokida, qarsak yordamida ifodalashga harakat qilganlar. Ovoz va dastlabki musiqa ohangi, ovozlarning kelib chiqishi esa inson ijtimoiy taraqqiyotining, g'oyalarning, dunyoqarashiing uzoq tarixiy davrning mahsulotlaridir.

## **YOSHLAR ONGIDA SIYOSIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI**

*Dilafro'z JO'RAYEVA,  
ijtimoiy-gumanitar fakulteti  
o'qituvchisi.*

*Yunusxon BOZOROV,  
ijtimoiy - madaniy faoliyat  
yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

Fuqarolik jamiyatining rivoji, xalqning ijtimoiy faolligi darajasi davlat hokimiyati, uning faoliyati mazmuniga samarali, ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xilma-xil negizlar, maqsadlar, qiziqishlar, intilishlar asosida tuziladigan turli-tuman jamoat tashkilotlari, uyushmalari, jumladan siyosiy partiya hamda harakatlar, fuqarolik jamiyati a'zolarining ijtimoiy faolligini ta'minlovchi vositalar bo'lib, ular shuningdek, davlat hokimiyati tizimi idoralaridagi mansablarni demokratik saylov yo'li bilan egallashga da'vogarlarini tanlash, ularni xalq oldida hisob berishga undovchi muhim

omildir. Siyosiy partiya va harakatlar «bir oyoqlari» bilan xalq-fuqorolik jamiyati ichida tursalar, «ikkinchi oyoqlari» bilan o'zlarining davlat hokimiyati idoralariga saylangan yoki ulardagi lavozimlarga tayinlangan vakillari timsolida siyosiy tizim tarkibiga kiradilar. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, ular xalq bilan siyosiy tizimning etakchi bo'g'ini - davlat hokimiyati idoralarini bog'lab turuvchi muhim xalqa vazifasini o'taydi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish uchun eng avvalo oiladagi huquqiy madaniyatni, huquqiy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish zarur. Zero, har bir shaxs, fuqaro oiladan etishib chiqadi, o'ziga yarasha ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham huquqiy tarbiyani birinchi navbatda oilada oladi.

Yangi kishini tarbiyalash hozirgi davrda asosiy masalalardan biridir. Demakki, jamiyatda yashovchi har bir kishi har tomonlama yetuk, axloqi, xulq-atvori namunali darajada bo'lishi shart. Oiladagi bunday sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun avvalambor ota-onaning o'zi fuqarolik jamiyati, unga qo'yilgan talablar, uning qonun-qoidalar haqida ko'p narsalarni bilishlari talab qilinadi. Agar ota-onaning o'zi jamiyat o'zgarishlariyu, undagi yuz berayotgan vaziyatlarni bilmas ekan, bunday oilada faqat savodsiz, o'z huquq va burchlarini bilmaydigan, bilimsiz, axloqsiz bolalar tarbiya topadi. Biz o'z farzandlarimizga qurayotgan jamiyatimizning o'ziga xos xususiyatlari haqida atroflicha tushunchalar berishimiz shart.

Yurtimizda shakllanayotgan fuqarolik jamiyati muayyan ijtimoiy makon bo'lib, u shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklarini mumkin qadar to'la darajada ro'yobga chiqarishga imkoniyat, shart-sharoitlar yaratadi. Unga monand tarzda qurilajak demokratik huquqiy davlatda qonun ustuvor bo'lib, mazkur holat insonning o'z-o'zini kamol toptirishga xizmat qiladi. Bunday jamiyatdagi davlat qonunlari inson huquqlarini aslo kamsitmasligi, aksincha ularning hayotda amaliy qaror topishiga ko'maklashmo'g'i lozim.

O'tish davrining murakkab sharoitlarida aholi turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etishni o'z zimmasiga olgan ko'p partiyaviylik tizimi hamda jamoat tashkilotlarining vujudga kelishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etishi kuchayib bormoqda. Mazkur jarayondan manfaatdor bo'lgan davlat hokimiyati siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari faoliyatini susaytiruvchi g'ovlarni bartaraf qilishga harakat qilmoqda. Zero, busiz jamiyatdagi vakillik demokratiyasini sira ham tasavvur etib bo'lmaydi.

Siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining faoliyati, uning samarasi fuqorolarning o'z hayotlariga daxldor muammolarga jonli qiziqish bilan qarashlariga, ularning u yoki bu siyosiy partiya yoki harakatdagi faol ishtirok etishlariga bog'liq. Fuqorolarning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy huquqlarini hayotda qaror topishi ularning siyosiy faolliklari, buning qamrovi va darajasidan bevosita kelib chiqadigan narsadir. Masalaning o'ta murakkabligini quyidagi sotsiologik mushohada orqali ham sezish mumkin. Jamiyatni tegishli tarzda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yangilash, o'zining mohiyati, e'tibori bilan, asosan, mulkchilik munosabatlarini isloh qilish negizidagina amalga oshiriladi. Ayni paytda jamiyatda siyosiy institutlarni, jumladan siyosiy partiyalarni shakllantirmasdan, undagi ijtimoiy munosabatlarning demokratiyalashuviga erishmasdan uni iqtisodiy isloh qilish va yangilash jarayonini muvaffaqiyatli davom ettirishning sira iloji yo'q. Iqtisodiy o'zgarishlarsiz, ya'ni bozor munosabatlarsiz, demokratiya bo'lmaydi va tegishli yo'nalishdagi demokratik taraqqiyotsiz ko'zlanayotgan iqtisodiy islohotlarning ro'yobga chiqishi amri mahol bo'lib qoladi. Ushbu muammolarni anglamasdan, ularni hal etish yo'lida yuksak fuqarolik faolligini namoyon etmasdan ko'zlangan maqsadlarga etishib bo'lmaydi. Masalaning muhim sotsiologik jihati xuddi shundan iborat.

O'z navbatida, umuminsoniy tamoyillar va me'yorlarni, butun ilg'or dunyoda chuqur ildiz otgan demokratik qadriyatlarni o'rganmasdan, ulardan ijodiy foydalanmasdan yurtimizda samarali faoliyat ko'rsatishga qodir siyosiy institutlarni, demakki, fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat asoslarni shakllantirib bo'lmaydi.


Teng huquqli fuqaro sifatida ayollarning huquqlari yuridik tan olinishi erkaklar va ayollarning hozirgi gender munosabatlarining rasmiy asosi bo'ldi. Biroq aslida butun dunyoda patriarxallikning gender sohasidagi tenglikka o'tishi juda notekis, og'ir kechmoqda. Mustamlakachilikdan keyin mamlakatlar zamonaviy fuqarolik institutlarini barpo etish uchun, birinchi navbatda, jamiyat ongini o'tmish yukidan tozalashlari shart.

Milliy tiklanish hamda milliy o'zlikni anglash haqida gap borganda mafkurachilar, eng avvalo, asosiysi oila deb hisoblanadigan qadriyatlarga tayanadilar. Oila jamiyatning eng barqaror instituti bo'lib, o'z mikroolamidani tashqarida bo'lgan barcha jarayonlarni hamda ziddiyatlarni aks ettiradi. Shunday qilib, mahalla nazarida ideal bo'lgan

ayol zamonaviy inson va fuqaroni tarbiyalay oladimi yoki yo`qmi, degan masala ochiq qolmoqda.

Fuqarolik jamiyatining tub ildizlari esa aynan o`zbekona mahallalar faoliyati bilan chambarchas ekanligini hayotning o`zi isbotlamoqda. Inson manfaatlari, oila, ayollar va bolalar obod mahalla yillarida amalga oshirilgan hayrli ishlar zahirida mahallalarimizda har tomonlama ravnaq toptirishga qaratilgan ezgu maqsadlar mujassam edi. O`sha sa'y-harakatlar samarasi o`laroq yurtimizdagi barcha mahallalar faoliyati ancha jonlandi, ularga yanada fayz bag`ishlandi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish aholini huquqiy tarbiyalash tizimining eng muhim bo`g`inidir. Bu esa Respublika Ma`naviyat va ma`rifat kengashi huzuridagi ikkala markazning ta`lim muassasalari bilan hamkorlik faoliyatining markaziy yo`nalishini tashkil etmoqda.

Xalqaro maydonda murakkab mafkuraviy globallashuv ketayotgan bir sharoitda faqat o`z mustaqil fikri, aniq hayotiy pozitsiyasiga ega bo`lgan xalq va jamiyatgina engilmas kuchga aylanib borishi yurtboshimiz tomonidan bir necha bor ta`kidlangan. Bugungi kun aholi, ayniqsa yoshlar huquqiy madaniyatining quyidagi tarkibiy qismlariga alohida eotibor qaratishni taqazo etadi:



Darhaqiqat, O'zbekiston mana shunday tahlikali va murakkab vaziyatda qanday maqsadlarni ko'zda tutib, qanday amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirganini, bu harakatlarning ilmiy-tarixiy, mantiqiy va qonuniy zamini va omillari, kerak bo'lsa, istiqloq o'zbek xalqiga tuhfa tariqasida berilmagani - bularning barchasini xalqimizga har taraflama chuqur yoritib, tushuntirib, isbotlab berish va bugungi yutuqlarni qadrlash, shukronalik tuyg'ularini rivojlantirish, har bir ziyoli, murabbiy, ma'naviyat va ma'rifat xodimining ma'naviy burchidir. Zero, yurtboshimiz aytganlaridek, «O'tgan davr mobaynida bosib o'tgan murakkab yo'limizga yana bir bor nazar tashlab, mustaqil taraqqiyotimiz davomida amalga oshirilgan ishlarimiz, erishgan natijalarimizni xolisona baholash va ularning mohiyati hamda ahamiyatini keng jamoatchilik, butun xalqimizning e'tibori va ongi shuuriga etkazish maqsadga muvofiq».

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uning qonun-doiralarga amal qilish har bir shaxsning huquqiy burchidir. Zero, shaxs oilada kamol topadi, ulg'ayadi, mana shu oilada olgan bilimlari orqali jamiyatda o'z o'rnini egallaydi. Shunday ekan, har bir oilada huquqiy savodxonlikni oshirish uchun bolalarga huquqiy tarbiyani ham ota-ona tomonidan berilishi fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Buning uchun esa ota-ona huquqiy jihatdan savodxon bo'lishi shart.

## **QIZ HAYOSI KO'ZIDA**

*Zulxumor TURSUNOVA,  
ijtimoiy-gumanitar fakulteti  
Ijtimoiy madaniy faoliyat  
yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Inson eng oliy xilqat sanaladi. Lekin ana shu insonni inson darajasiga ko'taradigan eng asosiy omil uning axloq-odobidir.

Bugun biz ma'naviyat to'g'risida ko'p gapiryapmiz, sababiki inson ma'naviyat egasi bo'lganidagina hayotda yashashdan maqsadi bo'ladi va eng muhimi u o'z taqdirini shu yurt, shu el taqdiri bilan chambarchas bog'liq xolda ko'radi. O'zini, o'z manfaatini ko'zlab emas, xalqi, vatani manfaatlarini ko'zlab ish tutadi.

Hurmatli yurtboshimizning “Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch” deya ta`rif berganliklari bejiz emas.

Inson uchun eng qimmatbaho kiyim deymizmi, bezak deymizmi – bu uning ahloqi-odobidir. Yana unga qo`shimcha qilsak, odob va hayobu ikki tushuncha insonning ikki qanotiday gap. Bulardan biri bo`lmasa, inson chin ma`noda komil bo`la olmaydi.

Qadim-qadimdan yaxshilik va yomonlik, oq va qora, ezgulik va yovuzlik, mehr-mehrsizlik, oqibat-oqibatsizlik kabi tushunchalar mavjud. Shuningdek, vafoning qarama-qarshisi vafosiz yoki bevafo, hayoning qarama-qarshisi behayo yoki hayosiz.

Odamga Alloh ta`olodan eng go`zal fazilatlar va qimmatli ne`matlar ato etilgan. Biroq hamma ham buning qadriga yetavermaydi. Ayniqsa, oilaning quvonchi, “bozori”, ota-onaning orzu-umidi, baxt-u shodligi bo`lgan farzand barkamol voyaga etsa, go`zal fazilatlar sohibi bo`lsa, bu nafaqat shu oilaning, jamiyatning baxti hisoblanadi.

Oilada har bir farzandning u xoh o`g`il, xoh qiz bo`lsin, o`z vazifasi bor. O`g`il bola – bo`lg`usi himoyachi, ota, qiz bola uy farishtasi, bo`lg`usi ona. Shunday ekan, o`g`il ota tarbiyasini, qiz ona tarbiyasini olib kamolga etadi. Shuning uchun ham “Onasini ko`rib qizini ol” iborasi bejiz aytilmagan.

Oilada qiz farzand bo`lsa ota-onalar quvonishadi. Chunki qiz bolalar ota-onaga mehribon, g`amxo`r bo`lishadi, ro`zg`or yumushlarini ertaroq qo`lga olib, onaga ko`mak berishadi.

Haqiqatan ham, qiz bolasi bor uy hamisha orasta, pokiza va fayzli bo`ladi. Bunday oilalarni ko`pchilik havas qiladi va mahalla-ko`y ibrat qilib ko`rsatadi.

Qiz bolani eng avvalo, uning xulq-u odobi, hayosi bezaydi. Abu Ali ibn Sino shunday deydilar:

“Hayo insonning abadiy go`zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz jonsiz jasadga o`xshaydi”.

Yoki Arastu aytganlar: “Adabning ko`rkamligi nasl-nasab kamchiliklarini berkitadi. Fazilat nasl-nasab bilan emas, balki go`zal odob, axloq bilandir”.

Bir donishmanddan so`radilar:

- Odam uchun yarashadigan liboslar ichida eng go`zali qanday kiyim?

Donishmand javob berdi:



- Odam uchun yarashadigan go`zal libos bu – odob, axloq libosidir. Kishi qiyofasini bezaydigan, uning husniga husn qo`shadigan bundan ortiq go`zal libos topish qiyin.

Ba`zan nihoyatda chiroyli, nihoyatda ko`rkam kiyingan qizlarni ko`rib, havas qilamiz. Lekin ozgina fursat o`tmay ularning surati siyratlariga mos kelmasligiga guvoh bo`lib, afsuslanamiz. Goh shu go`zal yuzlarga yarashmayotgan qiliq yoki og`izlaridan chiqayotgan behayo so`zlardan dilingiz og`riydi.

Hazrat bobomiz Alisher Navoiyda shunday misralar bor: “Vafosizda hayo yo`q, hayosizda vafo yo`q”.

Hayosizlik qiz bolani jamiki yaxshi fazilatlardan mahrum qiladi.

Hayo, avvalo, ko`zda aks etadi. Qiz bolaning ichki hislari, siyrati uning ko`z qarashlarida namoyon bo`ladi. Hayoli, iboli, uyatchan qiz kattalar oldida hamsha boshi bir oz egilgan, ko`zlarini erga qadagan holda gapiradi, javob qiladi.

Bu uning odobi, xulqining yaxshiligidan dalolat beradi.

Sevimli adibimiz Abdulla Qodiriyning “O`tgan kunlar” romanini har birimiz o`zgacha hayrat, mehr bilan, goh havas, goh armon bilan yig`lab o`qiyimiz. Asardagi qahramonlar tasviriga, ularning xatti-harakatlari, muomala madaniyati, so`zlashish odobiga e`tibor bergan bo`lsangiz kerak.

Marg`londan nihoyat Toshkentga kelgan Kumushning holati ... «Kumush uyalib zo`rg`agina salom berdi va Yusufbek hojining (qaynotasi) yaqiniga kelib bo`yin egdi.»

Bu chinakam o`zbek qizlariga xos odob, hayo.

Yoki kundoshi Zaynab tomonidan zaharlangan Kumush hayot bilan vidolashmoqda. Jon talashib yotibdi. Ana shu holatda ham ayollik, kelinlik hayosi, ibosini unutmaydi.

« – Oyim... Oyim! – dedi hoji.

Kumush ko`zini ochib besaranjom unga nazar tashladi va tanib qo`zg`almoqchi bo`ldi».

Momolarimiz onalarimizga xos o`zbekcha milliy urf-odatlarimizga amal qilib, qadriyatlarimizni e`zozlab, qizlik sha`ni, hayosi, ibosi, hurmatini saqlab, mahallasida, ko`cha-kuyda, o`quv dargohidami, ishxonasidami izzat-e`tibor topib, ota-onasiga, ustozlariga rahmatlar olib berayotgan qizlarimiz juda ko`p. Ular har qanday vaziyatda o`z hurmatlarini saqlay biladilar, yaxshi o`qiydilar, izlanadilar, ishxonada ham faol bo`ladilar. Chunki hayoli insonda imon bor, e`tiqod bor,

yashashdan maqsad bor. Va ana shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun har qanday to'siqni, mashaqqatni eng oladigan iroda bor.

Lekin ush bilan birga keyingi paytda qizlik kafolatini, hayosini unutib, evropacha kiyinishini, o'shanday hayot tarzini o'zlariga ma'qul ko'rayotgan qizlarimiz ham ko'payib borayotgani sir emas.

Oiladagi ota-onaga ko'zlarini tik qadab gap qaytaradigan yoki dunyoga keltirdingmi, talablarimni bajarishlaring shart, deya turib oladigan qizlardan ertaga nimani kutish mumkin. Bundaylar qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'yi, o'z ustozlariga ham ana shunday muomalani qilishi va el o'rtasida "bezraygan", "ko'zini lo'q qilib", "uyatni bilmaydiya" degan gapni olishi tabiiy.

Bundaylar ota-ona hurmatini to'kib, o'z nomlariga ham isnod keltiradilar. "Falonchining qizi yo'ldan chiqibdi" degan gapdan yomoni yo'q.

Ularning bu kabi xulqi keyinchalik quradigan oilalarining ham mustahkam bo'lmasligiga, tezda darz ketishiga olib keladi. Farzandlari tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Buvilarimiz doimo "Qizim, aqlli, odobli bo'lgin. Birovga tik qarab gapirmagin, yomon bo'ladi, jamoat joylarida sharaqlab kulma, qattiq gapirma, tanish, yaqinlaringni uchratib qolsang, qo'ling ko'ksingda, boshingni egib, salom ber. Ahvol so'ra" deb nasixat qilishadi.

Afsuski, bugun ko'cha-ko'ydami, bozor-o'chardami, "Damas", avtobusdami atrofdagilarni nazar-pisand qilmay, bor ovozi bilan uyali telefonlarda gaplashadigan, hammaning ko'z o'ngida dugonasi, yigitmi, qizmi, quchoqlashib, o'pishib ko'rishadigan, ruscha-o'zbekcha aralastirib, gapirib o'zini madaniyatli qilib ko'rsatadigan qizlarni ham uchratamiz.

Prezidentimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitoblarida shunday jumlar bor: "...bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga etkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan". 2010 - "Barkamol avlod yili" munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturida ham yoshlarimizni ma'naviyatli, o'qimishli bo'lishi, jismonan sog'lom kamolga etishi uchun yurtimizda amalga oshiriladigan keng ko'lamdagi vazifalar belgilab berilgan. Mustaqil ona yurtimiz, jona-jon xalqimiz bizga ertangi kunning munosib vorislari sifatida qarab g'amxo'rlik ko'rsatmoqda.

Oldimizda erkin va ozod, obod va farovon hayot barpo etish, O'zbekistonimizni dunyodagi buyuk davlatlardan biriga aylanishi uchun munosib hissa qo'shishdek yuksak mas'uliyat turibdi. Shunday ekan, biz ko'zguna qarab men ajdodlarimizga munosib bo'laolyapmanmi, momolarimday oqila, mehnatkash, iboli, hayoli qalbi daryo, pokiza, imon-e'tiqodlimanmi yoki ularning ruhlarini o'z xatti-harakatim bilan bezovta qilyapmanmi – degan savolni o'zimizga berib ko'rishimiz kerak.

Loaqal o'zimiz sevib o'qiydigan asar qahramonlarini eslaylik, Layli, Shirin, Barchinoy, Qaldirg'och, Kumush, Ra'no ... Ularni go'zal qilgan barchaga suyumli bo'lishiga olib kelgan jixat ham ulardagi qizlik ibosihayosi emasmi? To'maris momomizni olaylik, mard, jasur, yurti-eli taqdiri uchun jonini berishga tayyor.

Hayoli, nomusli inson nafaqat o'zi, balki el sha'ni, nomus-orini himoya qiladigan shijoatli inson darajasiga erishadi. Shunday ekan, eng avvalo, hayoni unutmaylik, ana shunda o'zbek qizlarigagina xos bo'lgan jamiki chiroyli fazilatlarimiz bilan ota-onalarimizga, barchaga manzur bo'lamiz. Yaxshi o'qishimiz, mehnatimiz bilan mana shunday ulug'yurtga munosib farzand bo'lamiz.

## **BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA OILANING O'RNI**

*Nuriddin QO'LDOSHEV,  
tarix fakulteti  
4-bosqich talabasi*

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, uni mustahkamlash va shuning asosida yangi huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo'liga o'tdi. Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida juda katta tub o'zgarishlar ro'y berdi. Istiqloq xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurtimiz tarixi, qadimiy madaniyatimiz tiklanmoqda va oliy qadriyat nufuziga ega bo'lmoqda.

Ayniqsa, mustaqillik yillarida respublika hukumati tomonidan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi va ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 1998 yilning Oila yili deb, 1999 yilini – Ayollar

yili deb, 2000 yilni – Sogʻlom avlod yili deb, 2001 yilni Onalar va bolalar yili deb, 2008 yilni Yoshlar yili deb, 2010 yilni esa Barkamol avlod yili deb nomlanishi ham tahsinga sazovordir.

Yosh avlodning maʼnan barkamol boʻlib tarbiyalanishida shubhasiz, oilaning oʻrni beqiyosdir. Oilada bola maʼnaviyatining shakllanishida onalarning alohida oʻrinlari bor. Etuk bilimga ega onagina farzandiga etarli darajada bilim bera oladi. Oʻtmishimizda oʻtgan buyuk allomalarimizning tarixlariga nazar solsak, avvalombor ularning onalari bilimli boʻlganliklarining guvohidir.

Maʼnaviy jihatdan etuk shaxs jamiyat hayotida oʻz oʻrniga ega boʻladi. U oilada ota, ishxonada yaxshi mutaxassis, tengqurlar davrasida esa sadoqatli doʻstdir.

Oilaning mustahkamligi ayni paytda farzandlarning barkamolligi omili hisoblanadi. Ayrim hollarda yosh oilalardagi qoʻydi-chiqdi holatlarini ham kuzatish mumkin. Bu oʻrinda kimdir aybni qizga, kimdir yigitga qoʻyadi. Fikrimcha, bu oʻrinda koʻproq yigitlarni aybdor deb hisoblash lozim. Chunki, yigit kishi oʻz turmush oʻrtogʻini ardoqlashi, u bilmagan narsalarni oʻrgatishi, uning fikri bilan hisoblashishi lozim. Ana shu orqali oilaviy rishtalar yanada mustahkamlanadi. Bu esa ayni chogʻda oilada tarbiya topayotgan farzandlarning maʼnaviy barkamol boʻlib etishishlari uchun zamin boʻladi.

Shu bois oilalar mustahkamligini taʼminlash uchun biz tarixchilar oʻtmishimizdagi buyuk allomalarimizning oilaviy hayotlaridagi ibratli voqealarni oʻrganib, tahlil qilib, uni yosh avlodga etkazishimiz kerak. Bu kabi tadbirlar shubhasiz, oilalar mustahkamligini taʼminlash va qoʻydi-chiqdilar sonining kamayishiga xizmat qiladi.

# MAMLAKATIMIZDA YOSHLARGA YARATILAYOTGAN SHART–SHAROYITLAR

*Bahromjon RAHMONOV,  
milliy g`oya, ma`naviyat  
asoslari va huquq ta`limi  
yo`nalishi 1-bosqich talabasi*

Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini mamlakatimizning kelajagi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillari hayotga dadil kirib kelmoqda. Yoshlarimiz siymosida texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan, mustaqil inson sifatida shakllangan, bir so'z bilan aytganda, el-yurt xizmatiga shay, yuragi yonib, ko'zlaridan o't chaqna b turgan navqiron yigit-qizlarni ko'rib muayyan kasb, ba'zan bir necha yo'nalish bo'yicha diplom olgan, bir necha xorijiy tilni o'rgangan, zamonaviy texnikani egallaganlarini ko'rib, qalbingizda ishonch, g'urur-iftixor tuyg'ulari jo'sh uradi.

Yoshlarimizning zamon va texnikaviy taraqqiyot bilan baravar odimlayotgani qalbimizga g'urur bag'ishlasa, ularning ongu tafakkurini dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlardan, «ommaviy madaniyat»ning zararli ta'siridan himoya qilish mas'uliyati bizni yanada hushyor, sezgir va ogoh bo'lishga undaydi.

Xalqimiz o'zining iste'dodli farzandlari bilan, ularning xalqaro fan olimpiadalari, jahon sport maydonlari, madaniyat va san'at olamida erishayotgan katta yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlanadi. Yurtimizda yashayotgan har bir bolaning o'ziga xos qobiliyati va iste'dodini o'z vaqtida payqash, tarbiyalash va ro'yobga chiqarish doimiy e'tiborda.

Yurtimizda iqtidorli yoshlarni moddiy rag'batlantirish va ma'naviy qo'llab-quvvatlashning samarali tizimi yaratilgan. Oliy o'quv yurtlarida bakalavr, magistr va aspirantlar uchun davlat stipendiyalarining turli shakllari joriy etilgan.

«Kelajak ovozi», «Yangi avlod», «Yilning eng yaxshi o'qituvchisi» kabi respublika tanlovlarining yuqori saviyada tashkil etilayotgani yoshlarda chuqur bilim olishga intilishni kuchaytirish, ilg'or o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish, pedagoglar o'rtasida innovatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha raqobat muhitini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda.

Poytaxtimizda “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg‘armasi va O‘zbekiston yoshlarining “Kamolot” ijtimoiy harakati hamkorligida o‘tkazilayotgan “Kelajak ovozi” iqtidorli yoshlar respublika ko‘rik-tanlovi bugungi kunda mamlakatimizdagi yoshlarga bo‘layotgan e‘tiborning isbotidir.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazish, uning jamiyatimizning chinakam tayanchi va suyanchi bo‘lishi uchun sharoit va imkoniyat yaratish davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

“Barkamol avlod yili” Davlat dasturiga muvofiq bu boradagi ishlar ko‘lami tobora kengayib borayotir. Dasturda yosh avlodning qobiliyati, qiziqishi va iste‘dodini kashf etishga yaqindan ko‘maklashish, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. O‘z faoliyatini yosh avlod manfaatlarini ifodalash, unga har jihatdan ko‘mak ko‘rsatishga qaratgan “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg‘armasi bu borada qator ijtimoiy loyihalar, grant dasturlari, festivallar, anjumanlar, ko‘rik-tanlovlar, konsertlar, badiiy ko‘rgazmalarni muntazam tashkil etib kelmoqda.

Jamg‘armaning O‘zbekiston yoshlarining “Kamolot” ijtimoiy harakati bilan hamkorlikda o‘tkazib kelayotgan “Kelajak ovozi” iqtidorli yoshlar respublika ko‘rik-tanlovi bunga misoldir. Joriy yilda ushbu ijodiy bellashuvga ishtirokchilardan arizalar qabul qilish yakunlandi. Agar o‘tgan yili tanlovda o‘ttiz ikki ming nafar yosh qatnashgan bo‘lsa, bu yil ellik to‘rt mingdan ortiq yoshdan ariza tushdi. Bu esa yurtimizda o‘z iqtidori, bilimi, salohiyatini dadil namoyon etish niyatidagi yoshlar safi tobora kengayib borayotganligining dalolatidir.

Hayot, taraqqiyot doimiy yuksalishda, yangi-yangi marralar sari odimlayveradi. Yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yetuk mutaxassis yoshlar Vatanimiz rivoji yo‘lidagi ezgu sa‘y-harakatlarni amalga oshiradigan, ro‘yobga chiqaradigan qudratli kuchdir. Yurtboshimiz ta‘kidlaganidek, har tomonlama yetuk avlodgina bugun hayot oldimizga qo‘yayotgan o‘ta murakkab, og‘ir sinov va qiyinchiliklarni yengish, biz ko‘zlagan yuksak marralarni egallashning eng asosiy shartidir.

Vatan bu – sen tug‘ilib o‘sgan, esingni tanigan maskan. Kimsasiz o‘lkalarda biror mavjudot yashamasa, Vatan bo‘lolmaydi, bag‘rida odamlar bo‘lgan diyorlargina vatanlik maqomiga ko‘tarila olgan. Biz

O'zbekistonda tug'ildik, voyaga yetyapmiz, biz uchun eng aziz tuyg'ular shu yerda yuz ochdi, bobolar xoki ham shu yerda, demak, biz xudbin emas, balki atrofdegilarning ham g'amini yeyuvchi, ularning ham tashvishini oson qilishga intuluvchi bo'lishimiz kerakki, toki shahrimiz, mahallamiz obod bo'lsin, qalblarda mehru muhabbat ziyodalashsin.

Shuning uchun ham 2010 yilning Barkamol avlod yili deb nomlanishini yurtboshimizning yoshlarga bo'lgan cheksiz g'amxo'rliqi va e'tiborining yana bir ifodasi deb bilaman, — zero, Vatan ravnaqi, yoshlar va jamiyat taraqqiyoti har jihatdan unib-o'sib kelayotgan yoshlar kamolotiga bog'liqdir.

Xalqimiz hech qachon hech kimdan kam bo'lmagan va hech kimdan kam bo'lmagan avlodni tarbiyalashda, Men siz yoshlarni kelajak poydevorimizni yaratishda birdam harakat qilishga chaqiraman. Zero maqsadimiz – erkin, ozod va obod hayot bunyod etishda ham hech kimdan kam bo'lmasin.

## MUNDARIJA

Muqaddima .....	3
Nodirbek Qodirov. Komil insonni shakllantirishda mahallaning roli .....	5
Muhayyo Abdurahmonova. G'oyaviy targ'ibotning samarali usul va vositalari .....	7
Zilola Olimova. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish: muammolar va imkoniyatlar .....	10
Nodirbek Qodirov. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy ma'naviyati .....	12
Dilafro'z Jo'raeva, Yunusxon Bozorov. Yoshlar ongida siyosiy madaniyatni shakllantirishda oilaning o'rni .....	18
Zulxumor Tursunova. Qiz hayosi ko'zida .....	22
Nuriddin Qo'ldoshev. Barkamol avlod tarbiyasida oilaning o'rni .....	26
Bahromjon Rahmonov. Mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoyitlar .....	28



# MEZON

Muharrir:

Tex muharrir:

Musahhih:

Nurbek ABDULLAYEV

Dilmurod UMAROV

Husniddin INOMOV

2010 yil 12 yanvarda terishga berildi. 2010 yil 20 fevralda bosishga ruhsat etildi. Bichimi 60x84 1F 16. Hajmi 2,0 bosma toboq. Ofset usuli. Buyurtma № 19. Adadi 300 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Namangan» nashriyoti. Namangan shahri, Navoiy ko'chasi 36

*UAS ko'p tarmoqli xususiy bosmaxonasida chop etildi.*

*Namangan shahri, Amir Temur ko'chasi, 20-A*



ISBN-978-9943-371-24-8

